



## ONOMASTIK OKSYUMORONLAR

**Saminov Abdumalik Inomjonovich**

FarDU dotsenti, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20770232>

**Annotatsiya:** Oksyumoron usuli orqali shakllangan badiiy asar sarlavhalari o'quvchini ajablantirishi, o'qishga qiziqish uyg'otishi bilan o'ziga xoslik kasb etishi haqida fikr bildirilgan hamda ularning lingvistik hamda lingvopoetik xususiyatlarini yoritilgan.

**Kalit so'z va iboralar:** oksyumoron g'ayriodatiy birikma, badiiy asar, sarlavha, lingvopoetik vosita, oppozitsiya, estetik-falsafiy maqsad.

Oksyumoron g'ayriodatiy semantik munosabatlarni ifodalovchi, odatda qo'shma so'z, so'z birikmasi, sodda gap, qo'shma gap, frazeologik birikma, paremiologik birlik (maqol) orqali ifodalangan lingvopoetik vositadir [1]. Bu hodisa mantiqiy yoki emotsional ma'nolarning munosabatiga asoslanadi. Bu terminga A.Hojiyev o'zining "Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati" asarida quyidagicha ta'rif beradi: "Oksyumoron (*yun. Oxymoron farosat bilan, lekin bema'ni*) mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikki tushunchaning (*ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan ikki so'z*) o'zaro qo'shilishidan iborat uslubiy figura"[2, 11, 13].

Oksyumoron usulidan biror-bir ma'no, tushuncha yoki fikrni o'ziga xos ifodalash maqsadida foydalaniladi. Bu usulning yuzaga chiqishida mantiqsizlikka asoslanganlik uning asosiy nazariyasi bo'lsa, so'zlovchining an'anaviy ifoda vositalardan zerikishi yoki o'ziga xos sintaktik shakl orqali o'zgacha mazmun bayon qilishga intilishi oksyumoronni yuzaga keltiruvchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Oksyumoron ko'pincha, aniqlovchi va aniqlanmish, hollovchi va hollanmish, ega va kesim o'rtasidagi munosabatlarda ko'zga tashlanadi. Masalan, *shirin tashvish, sukunat shivirlar, ko'r ko'radi, qattiq pichirlamoq, pichirlab baqirmoq* kabi. Bunday g'ayriodatiy birikishlar bo'yoqdorlik va ta'sirchanlikni oshirish uchun xizmat qiladi.

"O'zbek tili stilistikasi" kitobida mazkur uslubiy vosita haqida ayrim umumiy ma'lumotlar keltirilgan: zidlash munosabatini ifodalashning ko'rinishlaridan biri oksyumorondir. Kishi yoki predmetning tabiati va mohiyatiga xos bo'lmagan zid belgini unga nisbatan qo'llash orqali antonimik munosabat hosil qilish oksyumoron deyiladi. Bu stilistik vositada to'g'ri ma'nolar bilan mantiqiy jihatdan muvofiq kelmaydigan so'zlar bir-biri bilan uchrashadi, natijada, komponentlari mohiyat e'tibori bilan bir-biriga tamomila qarama-qarshi bo'lgan ko'chma ma'nodagi birikma hosil bo'ladi. Bu birikmaning qurilish material jihatdan

ko'rinishi asosan, sifat+ot shaklida bo'ladi. Masalan, *shirin dard, achchiq shodlik, aqlli tentak, ziyrak devona* [3, 8,9,10].

Bundan tashqari, olim A.Nurmonov o'zining nazariy qarashlarida, ushbu sintaktik figura haqida: "O'zaro sintagmatik munosabatga kirishayotgan leksemalar o'rtasida semik uyg'unlik, mazmuniy muvofiqlik bo'lmasa, bunday bog'lanish noodatiy bog'lanishni vujudga keltiradi va u oksyumoron deyiladi. Oksyumoronlar badiiy asarlarda obrazlilikni ta'minlash, ta'sirchanlikni oshirish uchun adibning individual nutqi sifatida yuzaga chiqadi. Masalan, *shirin o'lim, yashil sabo, qizil qor, yalpizga suyanmoq, kiprikka o'tirmoq* (M.Yusuf) [4] kabi ma'lumot va lisoniy dalillarni keltiradi. Demak, olim leksemalar o'rtasidagi semantik munosabatga asosiy urg'u beradi. Oksyumoronga juda keng ma'noda qaraydi hamda so'zlar ortasidagi o'rtasidagi semantik munosabatlarni har ikki qism bir-biriga mos kelganlarini odatiy, mos kelmaydiganlarini esa noodatiy, ya'ni oksyumoron degan fikrga keladi.

Bugungi badiiy adabiyotning asosiy maqsadlaridan biri yoshlar ongiga, madaniyatiga g'oyaviy ta'sir qilish, ezgulikka yetaklash, o'quvchi va tomoshabinlar e'tiborini o'ziga jalb qilishdir. Bunda anglash qiyin bo'lgan oraliq tushunchalar, yangi ma'nolarni yetkazish uchun oksyumoron usuli orqali shakllangan sintaktik qurilmalar barchani ajablantirishi, qiziqish uyg'otishi bilan badiiy asarlarda, kitob nomlarida, televideniya, ayniqsa, reklama sarlavhalarida o'ziga xos manba bo'lib xizmat qilmoqda. Masalan, asar sarlavhasi: *Yonar daryo* (Hakim Nazir), *Vido ziyofati* (A.Yo'ldoshev), *Mayus shodlik* (Tursun Ali); she'r sarlavhasi: *Qora quyosh* (Muhammad Yusuf), *Sukunat tovushi* (Tursun Ali); kinofilm nomi: *Ta'ziyadagi to'y, Tikansiz tipratikanlar* kabilarni dalil sifatida ko'rsatib o'tishning o'zi kifoya.

Biz quyida oksyumoron hodisasi asosida shakllangan bir necha qarama-qarshilik, oppozitsiya ifodalovchi lisoniy dalillarni, aynan, asar sarlavhalari misolida ko'rib chiqamiz.

Masalan:

**a) qayg'u + xursandchilik oppozitsiyasi:**

Normurod Norqobilovning "*Ayriliq quvonchi*" asari sarlavhasida oksyumoronning ushbu oppozitsiyasini ko'rishimiz mumkin. Bu birikmada o'ziga xoslik mavjud. Avvalo bu so'z birikmasi tashkil etgan qismlarning bog'lanishi, albatta, tilning grammatik qoidalariga amal qilgan holda moslashuv aloqasi orqali birikkan. Lekin bu o'rinda sintagmatik munosabatga putur yetgan, chunki bog'lanayotgan har qanday ikki qismning ham grammatik, ham semantik bog'liqligidan odatiy birikma hosil bo'ladi. Bu yerda esa ayriliq va quvonch





ITALY

# SCIENCE AND INNOVATION IN THE EDUCATION SYSTEM

International scientific-online conference



ITALY

leksemalari anglatgan semalar inson ruhiyatida bir vaqtda sodir bo'lishi mumkin emas. *Ayriliq* so'zi ( *Ayriliq o'limdan qattiq*) inson ruhiyatiga salbiy ta'sir etuvchi holatni anglatadi. *Quvonch* esa (To'y. Bu so'z kambag'alning uyini shodlikka, quvonchga to'ldiradi) zavqlanish va quvonish tuyg'usi, xursandlik ma'nosini bildiradi.

Shuningdek, ushbu sarlavhada qo'llangan birikma mantiqsizdek ko'rinsa-da, butun bir asar mazmun-mohiyati, estetik-falsafiy maqsadi aynan shu birikmada mujassamlashtirilgan.

Shu jumladan, Nazar Eshonqul qalamiga mansub "*Og'riq lazzati*" asar nomiga e'tibor beraylik. Keltirilgan oksyumoron namunasida birinchi komponentning, asosiy, lug'aviy ma'nosi ikkinchi komponent ma'nosi tomonidan inkor etiladi. *Og'riq lazzati* birikmasida ishlatilgan ikkinchi so'z o'zining asosiy lug'aviy ma'nosini qisman yo'qotgan: endi u tom ma'nodagi, tegishli darajadagi *lazzat* emas, balki emotsional-ekspressiv ma'noda ishlatilgan, muallifning tasvirlanayotgan narsaga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalovchi vositaga aylangan. Bunday g'ayriodatiy birikmalarda so'zlar muallifning voqea-hodisaga ijobiy yoki salbiy munosabatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, *og'ir kunlar sevinchi* oksyumoronini Shukrulloning shu nomli asari asosida tahlil qilsak, birikmaning har ikki qismi ham o'z ma'nosida qo'llanilgani, lekin bir-biriga zidlangan holda kelganini ko'ramiz. Chunki *og'ir kun* deganimizda hayolimizga ijobiy ma'nodagi holat emas, balki dard, hasrat kabi insonning salbiy holatini anglatuvchi leksemalar keladi.

Shu jumladan, birikma emotsional ma'noda qo'llanilgan bo'lib, muallifning tasvirlanayotgan narsaga nisbatan subyektiv munosabatini ifodalovchi uslubiy vositaga aylangan hamda ma'no darajasiga ko'ra o'quvchining fikrini tortishga va uni fikrlashga undashi bilan farqlanib turadi.

## **b) issiq + sovuq (harorat)opozitsiyasi:**

X.Xudoyberdiyevaning "Issiq qor" asarida sarlavhasidagi birikmasida ikki "qutb"ni anglatuvchi leksemalar bog'lanishidan bo'lgan oksyumoron yuzaga chiqqan, ya'ni issiqlik harorati nol darajadan pastlaganida, suv zarralarining sovuqdan birikishi natijasida yuzaga keladigan oq kristall shaklidagi yog'in ma'nosini ifodalovchi *qor* leksemasi (Uchoqdan mashinaga chiqquniga qadar Sharif qor bo'ronida sovqotdi), harorati doimo nol gradusdan yuqori bo'lgan haroratni anglatuvchi *issiq* leksemalari (Sherbek uning qo'lini issiq kaftlari orasiga oldi), umuman olganda, me'yorning ikki qutbida turadi. *Issiq qor* birikmasi orqali ana shu qutblar semantik jihatdan birikib, yangi mazmun kashf etgan.





Shuningdek, To'ra Mirzoning "*Saratondagi izg'irin*" asari nomida keltirilgan birikmaga e'tibor beradigan bo'lsak, *saraton* (*Ko'chaga chiqishim bilan saratonning issiq tafti yuzimga gup etib urildi*) va *izg'irin* (*Tog' tomondan qor achchiq izg'irin bilan bo'ralab urib berdi*) leksemalarining o'zaro birikuvidan hosil bo'lgan hamda ushbu birikma orqali oppozitsiya yuzaga chiqmoqda. Ya'ni biri issiqlik, ikkinchisi esa sovuqlik ma'nosini anglatib kelgan. Ushbu oksyumoron shaklan oddiy so'z birikmasidek namoyon bo'lsa-da, semantik jihatdan o'ziga xos, nomutanosiblik asosiy o'ringa ko'tarilgan. Demak, anglashimiz mumkinki, keltirilgan oppozitsiyaga anchagina mas'uliyat yuklatilgan.

#### v) yaxshi + yomon oppozitsiyasi:

Zulfiya Qurolboy qiziga tegishli "*Yovuzlik farishtasi*" asari sarlavhasi bu ziddiyatning yaqqol timsolini namoyon etadi. *Yovuzlik farishtasi* lisoniy dalilida bir-biriga qarama-qarshi ma'no anglatuvchi leksemalar bog'lanishidan oksyumoron yuzaga kelgan. Insonlarga xos yovuzlik ruhiy holati qanday vaziyatda ro'y berishi hammaga ma'lum, ya'ni inson ongida doimo salbiy ma'no bildiradigan, yomonlik, razillik semasini bildiruvchi *yovuzlik* leksemasi (Bu yovuzlik ularni hatto odam qiyofasidan chiqargan) va uning aksi, ijobiy ma'noda keluvchi *farishta* leksemalari (Shu kungacha Ravshan o'zini halolman deb farishta sanab yurardi), umuman olganda, bir chiziqning ikki tarafida turadi.

*Yovuzlik farishtasi* birikmasi orqali ana shu qutblar mazmunan birikib yangi sintaktik-stilistik mundarija hosil qilgan.

#### g) o'lim + hayot oppozitsiyasi:

Abdulla Qahhorning "*Tobutdan tovush*" asari. Asar nomidagi sintaktik qurilmada oksyumoron qatanashgan. Bu yerda *tovush* tiriklik, hayot alomati bor jonzotlarga xos bo'lgan xususiyat, uning tobutdan chiqishi esa mantiqan aqlga sig'maydigan hodisa. Tobut ichidagi jonsiz bag'rdan, o'lgan, vafot etgan insonlardan mantiqan hech qanday tovush chiqishi mumkin emas. Oksyumoronda tiriklarga xos belgi - *tovush* va *tobut* tushunchalari ziddiyatini ko'rishimiz mumkin.

Bundan tashqari Shukrullo qalamiga mansub "*Tirik ruhlar*" asar nomidagi oksyumoron qismlarining tarkibidagi leksemalarning semantikasida ham qarama-qarshilik, zidlik ma'nosi mavjud: *tirik* lesemasi "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha izohlanadi: o'lmagan, hali yashab turgan; hayot, barhayot [5]; *ruh* leksemasi esa quyidagicha sharhlanadi: kishi hayotligida u bilan birga, vafotidan keyin esa tanadan chiqib, abadiy qoladigan ko'zga ko'rinmas narsa, kuch; arvoh. Bundan ko'rinib turibdiki, *tirik* hamda *ruh* leksemalari ko'chma ma'noda qo'llanilib, nutqda uslubiy ma'no ifodalashga xizmat qilgan.





**d) yorug'lik + zulmat oppozitsiyasi:**

Mirzo Kenjabekning “*Qafasdagi ozodlik*” asari (Yozuvchi Shuhratning hibsdagi hayotiga bag'ishlangan) nomini ushbu oppozitsiya uchun namuna sifatida ko'rsata olamiz. Ijodkor *qafasdagi ozodlik* oksyumoronida asar qahramonining hayoti, undagi qiyinchiliklarni ochib berishga harakat qilgan.

Oksyumoronlar ma'no jihatdan mos kelmaydigan ikki qismnig bir nutq ko'rinishida ega va kesim, aniqlovchi va aniqlanmish, xollovchi va xollanmish qoliplanib tasvirga emotsional, kinoya va yumoristik-satirik bo'yoq baxsh etuvchi, asarning badiiy qimmatini oshiruvchi ifoda vositasi sifatida o'rganishni talab etadi.

**Adabiyotlar:**

- 1.Saminov.A. “Oksyumoron-badiiy nutqda lingvopoetik vosita sifatida” dissertatsiya Farg'ona-2022
- 2.Hojiyev.A.Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati.Toshkent.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi-2002
- 3.Shomaqsudov A. va bosh. O'zbek tili stilistikasi. Qo'llanma. Toshkent, O'qituvchi, 1983. 248-b. –C. 50.
- 4.Nurmonov A. Tanlangan asarlar. 3 jildli 3-jild, Toshkent, Akademnashr, 2012. 156-b. Nurmonov A. Leksemaning mazmuniy mundarjasi//Fan, ta'lim, jamiyat. To'plam. 2-chiqish. –Andijon, 2007. –B. 10-11
- 5.O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli 4-jild. –Toshkent, O'zME Davlat ilmiy nashriyoti, 2006-yil. –C. 109.
- 6.SAMINOV A. OXYMORON-AN UNUSUAL COMPOUND //THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука (Тараз). – 2021. – №. 9. – С. 638-641..
- 7.Saminov Abdumalik, . (2020). Oxymoron - A Semantic Contradiction. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 2(11), 178–181..
- 8.Saminov A. Oxymoron Is An Artistic Tool //Texas Journal of Multidisciplinary Studies. – 2023. – Т. 17. – С. 69-72.
- 9.Maftuna, G., Muhabbat, U., & Abdumalik, S. (2022). The Method of Onomastic Conversion in the Formation of Toponimes in the Fergana Region. Spanish Journal of Innovation and Integrity, 6, 451-456.
- 10.MAMAJONOV, A., & SAMINOV, A. (2019). Oxymoron as one of the modes of forming unfamiliar phrases in speech. Scientific journal of the Fergana State University, 1(6), 88-90.
- 11.Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. «Адабиётшунослик луғати». «Академнашр», 2010 й
- 12.Мамажонов А., Махмудов У. Услубий воситалар. – Фарғона, 1996. – Б 47



13.Салаев Ф., Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент, Янги аср авлоди, 2010. 331 Б. – С. 175

